

**"Korporativ Internet-Banking" tizimi bo'yicha
elektron to'lov hujjatlari orqali hisob-kitoblarni tashkil etish to'g'risidagi
Ommaviy oferta shartnomasi**

Toshkent sh.

20__ yil «__» _____

Ushbu hujjat "ASIA ALLIANCE BANK" ATBning (keyingi o'rinlarda "Bank" deb yuritiladi) rasmiy taklifi (ommaviy oferta) hisoblanadi va "Korporativ Internet-Banking" Tizimi orqali Bank mijozlariga – yuridik shaxslarga/yakka tartibdagi tadbirkorlarga (keyingi o'rinlarda “Mijoz” deb yuritiladi) xizmat ko'rsatishda, ularga xizmat ko'rsatishning standart shartlari va tartibini belgilaydi.

O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining (O'zR FK) 369-moddasi 2–bandiga muvofiq, Ariza berish va "Korporativ Internet-Banking" Tizimiga ulanish yo'li bilan ommaviy oferta shartlari qabul qilingan taqdirda, ushbu ofertani aktseptlashni amalga oshiruvchi mijoz - yuridik shaxs/yakka tartibdagi tadbirkor Buyurtmachiga aylanadi (O'zR FKning 370-moddasi 4-qismiga muvofiq ofertani aktseptlash, ofertada bayon qilingan shartlar asosida shartnoma tuzishga teng), Bank va Buyurtmachi/Mijoz esa birgalikda ushbu shartnomaning Taraflari hisoblanadi.

Yuqoridagilarni hisobga olgan holda, ushbu ommaviy ofertaning matnini diqqat bilan o'qib chiqing va Bank tariflari bilan tanishib chiqing. Agar siz ofertaning biron-bir bandiga rozi bo'lmasangiz, Bank Sizga xizmatlardan foydalanishni rad etishingizni taklif qiladi.

1. ATAMALAR VA TA'RIFLAR

Ushbu Shartnomada quyidagi atamalar qo'llaniladi va ular quyida keltirilgan ta'riflariga muvofiq talqin qilinishi kerak:

1.1. **Oferta** – ushbu hujjat, "Korporativ Internet-Banking" tizimi bo'yicha elektron to'lov hujjatlari orqali hisob-kitoblarni tashkil etish to'g'risidagi Ommaviy oferta shartnomasi hisoblanadi.

1.2. **Ofertani aktseptlash** – Mijoz tomonidan ushbu ofertaning 2.1-bandida ko'rsatilgan harakatlarni amalga oshirish orqali ofertani to'liq va so'zsiz qabul qilish.

1.3. **Buyurtmachi/Mijoz** – ofertani aktseptlagan va shu bilan tuzilgan Oferta shartnomasi bo'yicha Bank xizmatlarining Buyurtmachisi hisoblangan yuridik shaxs/yakka tartibdagi tadbirkor.

1.4. **Oferta-Shartnomasi** – ofertani aktseptlash yo'li bilan tuziladigan, mijozga-yuridik shaxsga/yakka tartibdagi tadbirkorga "Korporativ Internet-Banking" Tizimi orqali xizmat ko'rsatish uchun Bank va Mijoz o'rtasidagi shartnoma (keyingi o'rinlarda "Shartnoma" deb yuritiladi).

1.5. **“Korporativ Internet-Banking” xizmati orqali mijozlarning bank hisobvaraqlariga masofaviy xizmat ko'rsatish Tizimi** (keyingi o'rinlarda "Korporativ Internet-Banking" Tizimi deb yuritiladi) – Bank va Mijoz o'rtasidagi munosabatlarni avtomatlashtirish uchun mo'ljallangan va pul mablag'larini boshqarishning operativligini va Mijozlarning-yuridik shaxslarning/yakka tartibdagi tadbirkorlarning bank operatsiyalarini global Internet tarmog'i orqali sifatli ro'yxatdan o'tkazishni ta'minlaydigan dasturiy–apparat vositalari, shu jumladan ERI vositalari majmuidir. Ushbu tizim funktsional modulni - «Alliance Mobile» mobil bankingni o'z ichiga oladi

1.6. **«Korporativ Internet-Banking» xizmati** - Bank tomonidan “Korporativ Internet-

Banking” Tizimi orqali taqdim etiladigan Mijozning bank hisobvarag`ini masofaviy boshqarish xizmati.

1.7. «Alliance Mobile» Mobil banking – bank mijozlari - yuridik shaxslar/yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan mobil aloqa qurilmalari orqali bank xizmatlarini masofaviy olish uchun mo'ljallangan funksional modul.

1.8. **Elektron to'lov hujjati (ETH)** – birlamchi hisob-kitob-pul hujjatlari asosida yaratiladigan, ularning aniq analogi hisoblanadigan, Mijozning elektron-raqamli imzosi bilan tasdiqlangan va asl nusxaning kuchiga ega bo'lgan elektron hujjat (pul-hisob-kitob hujjati).

1.9. **Ish haqi reestri (Reestr)** – Mijoz xodimlarining plastik kartalariga mablag`larni – ish haqini va unga tenglashtirilgan to'lovlarni o'tkazish uchun elektron vedomostlar.

1.10. **Elektron raqamli imzo (ERI)** - ERIning Yopiq kalitidan foydalangan holda axborotni kriptografik o'zgartirish natijasida hosil qilingan va ERI kaliti Sertifikati Egasini identifikatsiya qilish, shuningdek ETH/Reestrda xatolik mavjud emasligini aniqlash imkonini beradigan, ushbu elektron hujjatni qalbakilashtirishdan himoya qilish uchun mo'ljallangan elektron hujjatning rekvizitlari

1.11. **ERI vositalari** - quyidagi funktsiyalarni amalga oshiradigan apparat va (yoki) dasturiy vositalar: ERIning Yopiq kalitidan foydalangan holda Elektron hujjatda Elektron raqamli imzoni yaratish, Elektron hujjatdagi ERIning Ochiq kalitidan foydalangan holda Elektron raqamli imzoning haqiqiylikini tasdiqlash, ERI kalitlarini yaratish.

1.12. **ERIning Yopiq kaliti** – ERI kaliti Sertifikati Egasiga ma'lum bo'lgan va ERI vositalaridan foydalangan holda ETH/Reestrda ERIni yaratish uchun mo'ljallangan noyob belgilar ketma-ketligi.

1.13. **ERIning Ochiq kaliti** - "Korporativ Internet-Banking" Tizimining har qanday foydalanuvchisi uchun ruxsat etilgan, ERI vositalaridan foydalangan holda ETHdagi ERIning haqiqiylikini tasdiqlash uchun mo'ljallangan, ERIning Yopiq kalitiga muvofiq bo'lgan noyob belgilar ketma-ketligi.

1.14. **ERI kalitining sertifikati** – ERI kaliti Sertifikatining Egasini shu jumladan ERIning Ochiq kalitini identifikatsiya qiluvchi tasdiqlovchi markazning vakolatli shaxsining ERI qo'yilgan va ETH/Reestrda ERIning haqiqiylikini tasdiqlash imkoniyatini ta'minlash uchun tasdiqlovchi markazi tomonidan "Korporativ Internet-Banking" Tizimi foydalanuvchisiga beriladigan qog'oz yoki ETH hujjati.

1.15. **ETH/Reestrda ERIning haqiqiylikini tasdiqlash** - Elektron hujjatdagi Elektron raqamli imzo uning Egasiga tegishli ekanligini ERI kaliti Sertifikatidan foydalangan holda ERIning sertifikatlangan vositasi tomonidan tasdiqlanishning va ushbu Elektron raqamli imzo bilan imzolangan Elektron to'lov hujjatda xatolik va qalbakilashtirish mavjud emasligining ijobiy natijasi.

1.16. **Kalitdagi axborot** - EHni autentifikatsiya qilish uchun foydalaniladigan har qanday ERI kalitlarini o'z ichiga olgan axborotlarning umumlashtirilgan tushunchasi.

1.17. **Kalitdagi axborotning komprometatsiya qilinishi** – Tomonlarning biriga zarar yetkazilgan yoki yetkazilmaganidan qat'i nazar, ERIning yopiq kaliti begona shaxsga foydalanish uchun imkoniyat mavjud bo'lgan vaziyatdir. Kalitdagi axborotning komprometatsiya qilinishi, bu quyidagi hodisalar sodir bo'lganligini anglatadi:

- kalit tashuvchilarni yo'qotish;
- "Alliance Mobile" mobil bankingiga ulangan mobil aloqa qurilmasining yo'qolishi;
- kalit tashuvchining nosozligi;
- kalit tashuvchining, keyinchalik ularni topilishi bilan, yo'qotilishi (shu jumladan o'g'irlanishi);
- kalitdagi axborotlaridan foydalanish huquqiga ega bo'lgan har qanday xodimlarni ishdan bo'shatish;
- seyfa kalit tashuvchisi bo'lgan paytda uning kalitlarini yo'qotish;
- kalitdagi axborotlarning tarqalib ketishiga yoki unda xatolik bo'lishiga shubha paydo bo'lishi;
- ERI tekshirilganda salbiy natija;

- kalit tashuvchilaridan ruxsatsiz nusxa olish yoki nusxa olinganligiga shubha qilish;
- kalitdagi axborotlarni oshkor qilish imkoniyatini ko'rsatadigan boshqa hodisalar, kalitdagi axborotlarning tashuvchisi bilan nima sodir bo'lganligi aniq ma'lum bo'lmagan boshqa holatlar, uchinchi shaxslarning kalitdan foydalanish imkoniyati mavjudligini bevosita yoki bilvosita ko'rsatadigan boshqa holatlar.

1.18. **Bankning tasdiqlovchi markazi** (keyingi o'rinlarda "Tasdiqlovchi markaz" deb yuritiladi) -tasdiqlangan Nizomlar va berilgan vakolatlar asosida faoliyat yurituvchi, ERI kalitlari Sertifikatlarini tayyorlashni amalga oshiradigan va ERI kalitlari Sertifikatlaridan foydalanish va bekor qilish bilan bog'liq boshqa funktsiyalarni bajaradigan Bankning vakolatli bo'linmasi.

1.19. **ERI kalitlari** (keyingi o'rinlarda "Kalitlar" deb yuritiladi) - ERIning Ochiq va Yopiq kaliti.

1.20. **ERI kaliti Sertifikatini bekor qilish** – ERI kaliti Sertifikati Egasining Kalitdagi axborotning komprometatsiya qilinganligi sababli ERI kaliti Sertifikatidan foydalanishning imkoniyati yo'qligi to'g'risidagi arizasiga binoan ERI kaliti Sertifikatini "Korporativ Internet-Banking" Tizimidan chiqarib tashlash.

2. SHARTNOMA PREDMETI

2.1. Shartnoma shartlari standart shaklda belgilangan va Mijoz tomonidan oferta shartlarini qabul qilish va "Korporativ Internet-Banking" xizmatiga ulanish to'g'risida ariza (ushbu Oferta shartnomasiga 1-ilova) topshirganda ular bilan rozi bo'lish orqali qabul qilinishi mumkin. Ariza berish Mijozning ushbu Shartnomaga to'liq qo'shilishini anglatadi. Mijozning arizasi Bankda ro'yxatdan o'tgan paytdan boshlab Shartnoma tuzilgan hisoblanadi.

2.2. Bank va Mijoz "Korporativ Internet-Banking" tizimi orqali axborot almashish, hisobvaraqlar bo'yicha hisob-kitob va boshqa operatsiyalarni amalga oshirish uchun elektron raqamli imzo (keyingi o'rinlarda "ERI" deb yuritiladi) bilan imzolangan hujjatlarga ishlov berish va ijro etishda Mijozdan elektron shaklda qabul qilish, shuningdek Mijoz tomonidan quyidagi axborotlarni elektron shaklda olish to'g'risida kelishib oladilar:

- uzining barcha hisobvaraqlaridagi joriy qoldiqlar to'g'risida;
- joriy yoki o'tgan valyuta kurslari to'g'risida;
- 1-va 2-sonli Kartotekalarda joylashtirilgan hujjatlar to'g'risida;
- depozit shartnomalari bo'yicha;
- kreditlar bo'yicha;
- eksport-import kontraktlari bo'yicha;
- bloklangan hisobvaraqlar bo'yicha;
- hisobot axborotlari (ko'chirmalar, hisobvaraqlar bo'yicha ma'lumotnomalar va boshqalar).

2.3. Tomonlar, Mijoz tomonidan ERI bilan tasdiqlangan, tayyorlangan va Bankka "Korporativ Internet-Banking" tizimi yordamida topshirilgan hujjatlar qog'oz hujjatlarga ekvivalent (bir xil ahamiyatga ega) va O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi talablarini hisobga olgan holda Mijozning mansabdor shaxslari tomonidan imzolangan va muhri bilan tasdiqlangan hujjatlar bilan teng ravishda yuridik kuchga ega ekanligini tan oladilar.

2.4. Har bir ETH/Reestr Mijozning pul-hisob-kitob hujjatlarini lavozimi bo'yicha va/yoki ishonchnoma (buyruq) asosida "birinchi" va "ikkinchi" imzolash huquqiga ega bo'lgan Mijozning Vakolatli shaxslariga tegishli bo'lgan ERI kaliti Sertifikati Egasining ERI bilan imzolanishi (tasdiqlanishi) kerak, bunda ERI kaliti Sertifikati Mijozning Rahbariga yoki tegishli ishonchnoma bilan vakolat berilgan shaxsga beriladi.

2.5. Ushbu bilan Tomonlar quyidagilarni tasdiqlaydilar va qabul qiladilar:

2.5.1. "Korporativ Internet-Banking" Tizimidan foydalangan holda Mijozdan ETH/Reestrni olgan Bank bunday ETH/Reestrning mazmuni va/yoki rasmiylashtirilishining to'g'riligi uchun javobgar bo'lmaydi;

2.5.2. Mijoz nomidan pul-hisob-kitob hujjatlarini imzolash uchun qonuniy vakolatlarga ega bo'lgan shaxslar Mijozning vakolatli shaxslari sifatida (bundan buyon matnda hamma joyda – Vakolatli shaxslar) chiqish huquqiga ega.

2.6. Mijoz "Korporativ Internet-Banking" Tizimi orqali Bankka yuborilgan ETHlar "Korporativ Internet-Banking" Tizimini qo'llash natijasida yuzaga kelgan nizo ko'rib chiqilgan taqdirda, Bank tomonidan sudda dalil sifatida taqdim etilishi mumkinligini tan oladi.

2.7. "Korporativ Internet-Banking" Tizimi Bank va Mijoz o'rtasidagi qo'shimcha axborot aloqa kanali bo'lib, Mijozga Bankdagi an'anaviy xizmat ko'rsatishni istisno qilmaydi. Har bir alohida holatda xizmat ko'rsatish shakli, agar Tomonlar o'rtasida boshqa kelishuvlar bo'lmasa, Mijoz tomonidan tanlanadi.

3. TOMONLARNING MAJBURIYATLARI

3.1. Mijozning majburiyatlari:

3.1.1. O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi normalariga, O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining normativ hujjatlariga, shu jumladan O'zbekiston Respublikasida naqd pulsiz hisob-kitoblarni amalga oshirish qoidalariga, Bank hisobvarag'i shartnomasiga, ushbu Shartnomaga amal qilish.

3.1.2. "Korporativ Internet-Banking" Tizimining ishlashi uchun foydalaniladigan texnik vositalari va uskunalarini o'z hisobidan ish holatida saqlash.

3.1.3. Axborot xavfsizligini ta'minlash choralariga rioya qilish.

3.1.4. Ushbu Shartnoma shartlarini o'z vaqtida va vijdonan bajarish.

3.1.5. Kalitdagi axborotlar komprometatsiya qilingan taqdirda, bu haqda darhol Bankka telefon orqali xabar berish, bunda bu haqda Bankka xabar qilingan kundan boshlab keyingi ish kunidan kechiktirmay, bunday xabarni qog'ozga majburiy ravishda takrorlash. Kalitdagi axborotlar komprometatsiya qilinganligi to'g'risidagi qog'ozdagi xabar Mijozning vakolatli shaxsi tomonidan imzolanishi va uning muhri izi bilan tasdiqlangan bo'lishi kerak.

Ushbu Shartnomada va Bankning www.aab.uz saytida joylashtirilgan tizim foydalanuvchisining Qo'llanmasida (Yo'riqnomasida) bayon qilingan "Korporativ Internet-Banking" Tizimini ekspluatatsiya qilish qoidalariga qat'iy rioya qilish:

3.1.6. ERI kaliti sertifikatini almashtirish (ERI kaliti Sertifikatining amal qilish muddati tugashidan oldin) yoki bekor qilish bo'yicha zarur choralarni o'z vaqtida amalga oshirish.

3.1.7. Tizimni ekspluatatsiya qilish jarayonida Bank tomonidan bayon qilingan talablarga rioya qilish va tavsiyalarni hisobga olish.

3.1.8. "Korporativ Internet-Banking" Tizimida foydalaniladigan kalitlar va parollarga taalluqli bo'lgan axborotlarni va Tizim orqali uzatiladigan va qabul qilinadigan boshqa axborotlarning maxfiyligiga rioya qilish va maxfiyligini ta'minlash.

3.1.9. Agar "Korporativ Internet-Banking" Tizimi Bank mutaxassislari tomonidan o'rnatiladigan bo'lsa, ekspluatatsiya qilishning barcha texnik shartlarini Mijozning texnik xizmatlari va xavfsizlik xizmati bilan oldindan kelishib olgan holda, ularning o'rnatish joyiga to'siqsiz o'tishini ta'minlash.

3.1.10. Ushbu Shartnoma doirasida Bank tomonidan taqdim etilayotgan xizmatlarni Bankda amaldagi Tariflarga muvofiq o'z vaqtida to'lash, buning uchun o'z hisobvarag'ida (hisobvaraqlarida) yetarli miqdorda pul mablag'larini saqlash.

3.1.11. ETH/Reestrarni topshirish tartibiga rioya qilish va faqat lozim darajada rasmiylashtirilgan hujjatlarni topshirishni ta'minlash. Agar Mijoz to'lov hujjatidagi xatolarni mustaqil ravishda bartaraf eta olmasa, Mijoz bu haqda Bankka xabar berishi shart.

3.1.12. "Korporativ Internet-Banking" Tizimini o'rnatishdan oldin dasturiy va texnik vositalarini tayyorlash, xususan: **USB-porti va operatsion tizimi Windows 7 dan past bo'lmagan soz holdagi shaxsiy kompyuterga, Internet Exploler veb-sharhlovchining kamida 8-versiyasiga, chop etish moslamasiga ega bo'lish. Mobil qurilmada "Korporativ Internet-Banking" Tizimidan foydalanish uchun Android 2.2 yoki iOS 6 dan past bo'lmagan operatsion tizimli mobil aloqa qurilmalariga ega bo'lish.**

3.1.13. Bankning birinchi talabiga binoan, bunday talab olingan kundan boshlab 2 (ikki) ish kuni ichida Mijozning imzolari va muhri bilan tasdiqlangan hujjatlarning bosma va ijro etilgan

(shu jumladan Mijozning hisobvaraqlari bo'yicha o'tkazilgan) nusxalarini taqdim etish yoki ko'rsatilgan hujjatlarning asl nusxalarini taqdim etish.

3.1.14. Agar Shartnomaning amal qilish muddati davomida ERIdan foydalangan holda hisobvaraqdagi pul mablag'larini tasarruf etish va ularni identifikatsiya qilish huquqiga ega bo'lgan shaxslarning vakolatlarini belgilash uchun zarur bo'lgan hujjatlar va ma'lumotlar o'zgartirilsa, ko'rsatilgan ma'lumotlarni Bankka taqdim etish va ERI kalitlarini ushbu o'zgarishlar sodir bo'lgan sanadan boshlab 10 (o'n) ish kunidan kechiktirmay qayta chiqarish bo'yicha barcha zarur choralarini ko'rish.

3.1.15. Ushbu Shartnoma bekor qilingan taqdirda, ushbu Shartnomaga 4-ilova shaklidagi qabul qilish-topshirish dalolatnomasi bo'yicha ERI kalitlarini Bankka qaytarish.

3.1.16. Oferta shartnomasidagi, Bank Tariflaridagi, Foydalanuvchining qo'llanmasidagi (Yo'riqnomalari), axborot stendlaridagi, Internet tarmog'idagi sayt va boshqalarda joylashtirilgan boshqa hujjatlardagi o'zgarishlar bilan tanishish.

3.2. Mijoz quyidagi huquqlarga ega:

3.2.1. Bank xodimlaridan ushbu Shartnoma shartlarini bajarish masalalari bo'yicha zarur axborotlarni olish.

3.2.2. Ushbu Shartnomaga muvofiq "Korporativ Internet-Banking" Tizimi bo'yicha ETH/Reestrni Bankka yuborish.

3.2.3. "Korporativ Internet-Banking" tizimi orqali Bankdan olingan axborotlarni ko'rib chiqish va chop etish.

3.2.4. Agar Mijoz ish haqi loyihasi doirasida tashkilotga xizmat ko'rsatish bo'yicha Bank bilan Shartnoma tuzgan bo'lsa, Mijoz "Korporativ Internet-Banking" Tizimi orqali Reestrni Bankka elektron shaklda yuborish imkoniyatiga ega.

3.3. Bankning majburiyatlari:

3.3.1. Ushbu shartnomaga muvofiq rasmiylashtirilgan va tasdiqlangan "Korporativ Internet-Banking" Tizimi bo'yicha olingan ETHlarni ijro etish uchun qabul qilish.

3.3.2. "Korporativ Internet-Banking" Tizimida xizmat ko'rsatish bo'yicha Mijoz xodimlariga maslahat berish.

3.3.3. Kalitdagi axborotlarning komprometatsiya qilinganligi to'g'risida axborot mavjud bo'lgan taqdirda, Mijozdan barcha ETH/Reestrni ijroga qabul qilishni darhol to'xtatish.

3.3.4. "Korporativ Internet-Banking" Tizimining ishlash qobiliyatini tiklashda Mijozga yordam ko'rsatish.

3.3.5. ETH asosida Mijozning hisobvarag'idan mablag'larni hisobdan chiqarish operatsion kun davomida amalga oshiriladi.

3.4. Bank quyidagi huquqlarga ega:

3.4.1. Mijozning farmoyishsiz, Bankning amaldagi Tariflariga muvofiq ushbu Shartnoma bo'yicha Bank xizmatlarini to'lash uchun Mijozning hisobvarag'idan (hisobvaraqlaridan) pul mablag'larini hisobdan chiqarish.

3.4.2. Mijoz tomonidan O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga rioya etilmagan taqdirda va O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligida nazarda tutilgan hollarda Mijoz tomonidan o'tkazilayotgan operatsiyaning qonuniyligi to'g'risida yozma tushuntirish taqdim etilgunga qadar, Mijozni xabardor qilmasdan bir tomonlama tartibda ETHni qabul qilishni to'xtatib turish.

3.4.3. Quyidagi hollarda Mijozni oldindan xabardor qilib, "Korporativ Internet-Banking" Tizimidan foydalangan holda Mijozga xizmat ko'rsatishni to'xtatib turish:

- Agar Mijoz Shartnomaga va/yoki tizim foydalanuvchisining Qo'llanmasiga (Yo'riqnomalariga) rioya qilmasa;

- baxsli vaziyatlar paytida;

- "Korporativ Internet-Banking" tizimiga xizmat ko'rsatish bilan bog'liq avariya va reglament ishlarini bajarish uchun, Mijozga ushbu ishlarni bajarish vaqti to'g'risida xabar qilish

bilan.

3.4.4. Mijozdan jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashish bo'yicha O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq Bankka o'z funksiyalarini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan hujjatlarni taqdim etishni talab qilsin.

3.4.5. Quyidagi hollarda xizmat ko'rsatishni rad etish:

- "Korporativ Internet-Banking" Tizimidan foydalangan holda Mijoz tomonidan amalga oshirilgan shubhali operatsiyalar aniqlangan taqdirda;

- O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligida, ichki bank qoidalarida va ushbu Shartnomada nazarda tutilgan boshqa hollarda.

3.4.6. Mijozni ushbu Shartnomada ko'rsatilgan joylashgan joy (pochta manzili) yoki manzil bo'yicha o'rganishni, shu jumladan, agar masofaviy xizmatlardan foydalangan holda shubhali operatsiyalarni amalga oshirishga gumon tug'ilsa, bevosita vakolatli shaxs tomonidan operatsiyani amalga oshirish jarayonini o'rganish uchun amalga oshirish.

3.4.7. Kalitni komprometatsiya qilinganga shubha tug'ilsa, Mijoz kalitini bloklash.

3.4.8. Agar ETHni qaytarib olishning iloji bo'lmasa, Mijozga uni qaytarib olishni rad etish.

3.4.9. Mijozdan olingan ETHlarni qonunchilik va Bank talablariga muvofiq lozim darajada rasmiylashtirilmagan taqdirda yoki ETHning haqiqiyiligiga aniq gumon qilingan taqdirda ijro etish uchun qabul qilmaslik. Bank ETHni qabul qilishni rad etganligi to'g'risida Mijozga Bank rad etish sababini ko'rsatgan holda bunday hujjatlarni olgan kundan boshlab 1 (bir) ish kuni ichida xabar beradi.

3.4.10. Mijoz jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish va terrorizmni moliyalashtirish maqsadida bunday xizmatlardan foydalanayotganiga asosli shubhalar mavjud bo'lgan taqdirda ushbu Shartnomani oldindan ogohlantirmasdan bir tomonlama tartibda bekor qilsin.

3.4.11. Quyidagilarni o'rnatish va o'zgartirish:

- Oferta shartnoma shartlarini, Mijozning "Korporativ Internet-Banking" tizimidan foydalanishi uchun Bank Tariflarini;

- Mijozga xizmat ko'rsatish tartibini, shu jumladan Bankning ish jadvali va operatsion vaqtini.

Bank Oferta shartnomasiga, Tariflarga o'zgartirishlar va/yoki qo'shimchalar kiritgan taqdirda, Bank bu haqda Mijozni bunday o'zgartirishlar va/yoki qo'shimchalar kiritish sanasidan kamida 10 (o'n) kalendar kun oldin, ushbu Shartnomaga qo'shimcha kelishuv tuzmasdan, quyidagi usullardan biri bilan xabardor qiladi:

- Oferta shartnomasiga, Tariflarga o'zgartirish va/yoki qo'shimchalarni Bank ofislaridagi axborot stendlariga joylashtirish orqali;

- Oferta shartnomasiga, Tariflarga o'zgartirish va/yoki qo'shimchalarni Bankning web-sahifasidagi: www.aab.uz manziliga joylashtirish orqali;

- Bankning ixtiyoriga ko'ra boshqa yo'l bilan.

3.4.12. Agar Mijoz Oferta shartnomasiga, Tariflarga kiritilgan o'zgartirish yoki qo'shimchalar bilan rozi bo'lmasa, Mijoz bunday o'zgartirishlar yoki qo'shimchalar kuchga kirgunga qadar Shartnomada nazarda tutilgan tartibda Shartnomadan bosh tortishga haqli.

3.5. Tomonlar quyidagi shartlarga rioya qilish majburiyatini oladilar:

3.5.1. Tizimdan foydalanish tufayli boshqa Tomonga zarar yetkazadigan harakatlarni amalga oshirmaslik.

3.5.2. "Korporativ Internet-Banking" Tizimi orqali uzatiladigan va qabul qilinadigan dasturiy vositalar, ETHlarning yaxlitligini va saqlanishini, ERIning maxfiy kalitlarini, kirish parollarini va boshqa axborotlarning himoya qilinishini ta'minlash.

3.5.3. Mijozlardan olingan barcha axborotlar har kuni O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi talablariga muvofiq arxivlanadi va saqlanadi.

3.5.4. "Korporativ Internet-Banking" Tizimi bilan ishlash amalga oshiriladigan hisoblash texnirflarini, aloqa vositalarini, avtomatlashtirilgan ish joyining ishlash qobiliyatini ta'minlash

uchun o'z xonalarini va texnik vositalarini o'z hisobidan ish holatida saqlash va zarur hollarda mustaqil ravishda modernizatsiya qilish.

4. HISOB-KITOB TARTIBI

4.1. Bank tomonidan Mijozga ushbu Shartnoma bo'yicha xizmatlar ko'rsatish Mijoz tomonidan Tariflarda (keyingi o'rinlarda "Tariflar" deb yuritiladi) nazarda tutilgan hollarda, miqdorlarda va muddatlarda to'lanadi.

4.2. Agar kalendar oy davomida Mijozning Bankda ochilgan depozit hisobvaraqlari bo'yicha operatsiyalar amalga oshirilmagan bo'lsa, abonent to'lovi to'lanmaydi.

4.3. Agar Mijoz Bankda O'zbekiston Respublikasining milliy valyutasida talab qilib olinguncha asosiy va ikkilamchi depozit hisobvarag'iga ega bo'lsa va hisobvaraqda pul mablag'lari mavjud bo'lsa, Mijozdan abonent to'lovini undirish Bank tomonidan har oyda to'lov amalga oshirilgan kalendar oyining oxirgi ish (bank) kunida Mijozning farmoyishsiz (aktseptsiz tartibda) Bank tomonidan tegishli summani Mijozning hisobvarag'idan memorial order orqali hisobdan chiqarish yo'li bilan amalga oshiriladi.

4.4. Ushbu Oferta shartnomasini aktseptlash orqali, Mijoz ushbu Shartnoma bo'yicha abonent to'lovini to'lash uchun, shuningdek mazkur Shartnomaning 6.5-bandiga muvofiq Mijozning javobgarligi yuzaga kelgan hollarda Bankdagi hisobvaraqlaridan pul mablag'larini aktseptsiz tartibda hisobdan chiqarish huquqini Bankka beradi.

4.5. Agar Mijozning asosiy hisobvarag'i boshqa bankda bo'lsa va Mijozning Bankda ochilgan ikkilamchi hisobvarag'ida (hisobvaraqlarida) pul mablag'lari bo'lmasa yoki ular abonent to'lovini to'lash uchun yetarli bo'lmasa, Mijoz o'zining oxirigacha boshqa banklarda ochilgan hisobvaraqlaridan o'tkazish orqali ikkilamchi hisobvaraqda pul mablag'lari bo'lishini ta'minlashi shart.

5. ISHNING SHARTLARI VA TARTIBI

5.1. Tomonlar ushbu Shartnoma bo'yicha foydalaniladigan telekommunikatsiya, axborotga ishlov berish va saqlash tizimi axborotni qabul qilish, uzatish, ishlov berish va saqlashda ishonchli va samarali ishlashni ta'minlash uchun yetarli ekanligini, ruxsatsiz kirishdan himoya qilish, tasdiqlash uchun olinayotgan elektron hujjatlardagi axborotlarning muallifligi va haqiqiylikni tasdiqlash va bahsli vaziyatlarni hal qilish uchun kirishni cheklash, shifrlash, yaxlitlikni nazorat qilish va elektron raqamli imzoni ta'minlovchi axborotni himoya qilish tizimi yetarli ekanligini tan oladilar.

5.2. Elektron to'lov hujjati (ETH), agar Mijoz tomonidan lozim darajada rasmiylashtirilgan, ERI bilan tasdiqlangan va ishlov berishga topshirilgan bo'lsa va Bank tomonidan ijro etish uchun qabul qilingan bo'lsa, ushbu Shartnoma bo'yicha Tomonlarning majburiyatlarini keltirib chiqaradi. ETHning Bank tomonidan qabul qilinganligining dalili ETHdagi maqom maydonida "Kiritilgan" maqomini olishi hisoblanadi. "Korporativ Internet-Banking" Tizimida Mijoz tomonidan uzatiladigan har qanday ETH Mijozning ERI bilan tasdiqlanishi kerak.

5.3. "Korporativ Internet-Banking" xizmatiga ulanish quyidagi shartlar to'plami mavjud bo'lganda Bank tomonidan amalga oshiriladi:

- Bank va Mijoz o'rtasida Bank hisobvarag'i shartnomasi tuzilgan va Bank tomonidan Mijozga bank hisobvarag'i (hisobvaraqlari) ochilgan bo'lsa;
- Mijoz Bank tomonidan belgilangan shakl (ushbu Shartnomaga 1-ilova) bo'yicha oferta shartlarini qabul qilish va "Korporativ Internet-Banking" xizmatiga ulanish to'g'risida ariza bilan Bankka murojaat qilib, ushbu Oferta shartnomasini aktseptlagan bo'lsa;
- Mijoz tomonidan Bankka ERIdan foydalangan holda Mijozning hisobvarag'idagi pul mablag'larini tasarruf etishga vakolatli shaxslar to'g'risida ma'lumotlar taqdim etilgan bo'lsa.

5.4. Mijoz oferta shartlarini qabul qilish va "Korporativ Internet-Banking" xizmatiga ulanish to'g'risida ariza berish orqali, Mijozning avtomatlashtirilgan ish joyining dasturiy va texnik vositalariga qo'yiladigan talablarning bajarilganligini tasdiqlaydi.

5.5. Mijozga kalit tashuvchisini topshirish qabul qilish-topshirish dalolatnomasini imzolash orqali amalga oshiriladi (ushbu Shartnomaga 3-ilova).

5.6. Ushbu Shartnoma doirasida Bank quyidagi funksiyalarni amalga oshiradi:

5.6.1. Mijozdan elektron aloqa kanallari orqali lozim darajada rasmiylashtirilgan ETH/Reestrlarni ularning yaxlitligi va muallifligini nazorat qilgan holda qabul qilish.

5.6.2. ETH/Reestrlarni faqat vakolatli shaxslarning to'g'ri elektron raqamli imzosi (ERI) bilan qabul qilish, ularning ochiq kaliti Bankda saqlanadigan "Korporativ Internet-Banking" tizimidagi Mijozning imzo kaliti Sertifikatida ko'rsatilgan ma'lumotlarga muvofiq keladi.

5.6.3. Qabul qilingan Mijozning ETHlariga O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining belgilangan normalari, texnik talablari, yo'riqnomalariga qat'iy muvofiq ravishda ishlov berish va ijro etish.

5.6.4. Mijozning ETHga ishlov berish va ijro etish natijalari bo'yicha, shuningdek hisobvaraqa bo'yicha boshqa operatsiyalarni amalga oshirgandan keyin, operatsiyalar amalga oshirilgan kunning keyingi bank kunida, shuningdek Mijozning yozma so'rovlariga binoan, hisobvaraqa bo'yicha amalga oshirilgan hisob-kitob hujjatining asosiy rekvizitlarini ko'rsatgan holda hisobvaraqa bo'yicha ko'chirmalar tayyorlash va taqdim etish.

5.6.5. "Korporativ Internet-Banking" xizmati bo'yicha ETH va boshqa axborotlarga ishlov berish tartibidagi o'zgarishlar to'g'risida Mijozni o'z vaqtida xabardor qilish. "Korporativ Internet-Banking" Tizimidan to'g'ri eksplutatsiya qilish uchun zarur bo'lgan masalalar bo'yicha Mijozga maslahat xizmatlarini ko'rsatish, masalan: "Korporativ Internet-Banking" Tizimining ishlashi, himoya vositalari va axborotga ishlov berish texnologiyasidan foydalanish.

5.6.6. Mazkur Shartnomaning 3.4.11-bandida ko'rsatilgan usullarda Mijozni bo'lajak modernizatsiya to'g'risida kamida 5 (besh) ish kuni ichida xabardor qilgan holda "Korporativ Internet-Banking" tizimining dasturiy ta'minotini zarur modernizatsiyasini o'tkazish.

5.6.7. Qog'oz hujjatni Bankka o'z vaqtida yetkazib berish choralari ko'rish uchun Mijozga "Korporativ Internet-Banking" tizimidagi kutilmagan nosozliklar to'g'risida xabar berish.

5.7. Bankning ETHni bajarishdan bosh tortishi uchun quyidagilar xizmat qiladi:

- ERIning tekshirishning salbiy natijasi;
- operatsiyalarni amalga oshirish uchun Mijozning hisobvarag'ida mablag'larning yetarli emasligi;
- hujjat sanasining O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi talablariga muvofiq emasligi;
- jo'natuvchi yoki oluvchining rekvizitlari noto'g'ri ko'rsatilganligi;
- ETHning O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi talablariga muvofiq emasligi;
- O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligida nazarda tutilgan boshqa hollarda.

6. TOMONLARNING JAVOBGARLIGI

6.1. Mazkur Shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarmaganligi yoki lozim darajada bajarmaganligi uchun Tomonlar O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq javobgar bo'ladi.

6.2. Ushbu Shartnoma qoidalariga rioya qilish Bank va Mijoz uchun majburiy hisoblanadi.

6.3. Bank quyidagilar uchun javobgar bo'lmaydi:

- "Korporativ Internet-Banking" xizmatidan foydalangan holda olingan pul-hisob-kitob hujjatlari asosida hisobvaraqdan (hisobvaraqlardan) pul mablag'larini hisobdan chiqarish uchun, agar bunday hisobdan chiqarish kalitdagi axborotlarning komprometatsiyasi natijasida yuzaga kelgan va ushbu Shartnoma shartlariga muvofiq Bank xabardor qilinmagan bo'lsa;

- Mijoz ushbu Shartnomada nazarda tutilgan talablarga rioya qilmagan taqdirda Mijoz uchun salbiy oqibatlar (shu jumladan unga yetkazilgan zararlar) uchun, shu jumladan, ERI kaliti Sertifikatini uchinchi shaxslarga o'tkazish, shu jumladan ruxsatsiz o'tkazish natijasida, ERI kaliti Sertifikati Egasi bo'lmagan shaxs tomonidan ERIdan foydalanish huquqini olishi uchun;

- uchinchi shaxslar tomonidan "Korporativ Internet-Banking" tizimiga kirish kalitlari va login/parol ma'lumotlari yo'qolgan, o'g'irlangan, foydalanilgan taqdirda Mijozga yetkazilgan zarar

uchun, Mijoz ushbu shartnomaga muvofiq kirish kalitlari, login/parol ma'lumotlarini o'z vaqtida almashtirmaganligi uchun;

- Shartnomaga muvofiq Mijoz tomonidan ETH/Registrlarni uzatish (qabul qilish) mumkin emasligiga olib keladigan aloqa liniyalari ishidagi mumkin bo'lgan texnik to'siqlar uchun.

6.4. Mijoz "Korporativ Internet-Banking" tizimiga kirish kalitlari va login/parol ma'lumotlarining yo'qolishi, "Korporativ Internet-Banking" tizimidan foydalangan holda Mijozni xabardor qilgan yoki xabardor qilmagan holda uchinchi shaxslar tomonidan amalga oshirilgan barcha operatsiyalar uchun javobgar bo'ladi.

6.5. Kirish kalitlarini yo'qotganligi uchun Mijoz Bank Tariflariga muvofiq Bankka jarima to'laydi.

6.6. Bank va Mijoz ushbu Shartnoma shartlarini qisman yoki to'liq bajarmaganlik uchun, agar bunday bajarmaslik yengib bo'lmas kuch holatlari tufayli yuzaga kelgan bo'lsa, javobgar bo'lmaydilar. Fors-major holatlariga quyidagilar kiradi: suv toshqinlari, yong'inlar, zilzilalar va boshqa tabiiy ofatlar, urushlar, epidemiyalar, tomonlarning aybi bilan sodir bo'lgan, lekin tomonlarning o'z majburiyatlarini bajarishiga ta'sir qiladigan kommunikatsiya serveri ishidagi uzulishlar, texnikaning ishlamay qolishi, dasturiy ta'minot, elektr ta'minoti va ma'lumotlar uzatish tizimlaridagi uzulishlar. Yengib bo'lmas kuch holatlari qonunchilikda belgilangan tartibda vakolatli organlar tomonidan tasdiqlangan taqdirda, fors-major deb hisoblanadi.

6.7. Ushbu Shartnomaning 6.6-bandida ko'rsatilgan holatlar tufayli ushbu Shartnoma bo'yicha majburiyatlarini bajarishning imkoni bo'lmagan Tomon boshqa Tomonni kechiktirmasdan yozma ravishda xabardor qilishi va boshqa Tomonning talabiga binoan fors-major holatlarining kelib chiqishi va/yoki tugatilishini tasdiqlovchi dalillarni taqdim etishi kerak. Vakolatli organ tomonidan berilgan yozma hujjatlar ushbu holatlarning kelib chiqishi va davomiyligining isboti bo'lib xizmat qiladi.

6.8. Yengib bo'lmas kuch holatlari yuzaga kelgan taqdirda, ushbu Shartnoma bo'yicha majburiyatlarni bajarish muddati bunday holatlar va ularning oqibatlari amal qiladigan vaqtga mutanosib ravishda kechiktiriladi.

6.9. Agar yengib bo'lmas kuch holatlari ketma-ket 60 kundan ortiq davom etsa, tomonlarning har biri Shartnomani bekor qilish huquqiga ega.

7. NIZOLARNI HAL QILISH TARTIBI

7.1. Shartnomani bajarish paytida yuzaga keladigan barcha nizolar va kelishmovchiliklarni Tomonlar muzokaralar yo'li bilan hal qilishga intilishadi. Nizolarni hal qilish paytida Tomonlar boshqa Tomonni yozma ravishda xabardor qilish orqali Shartnomani amal qilishini to'xtatib turish huquqiga ega. Ushbu xabarnoma vakolatli shaxs tomonidan imzolanishi va tegishli tomonning muhri bilan tasdiqlanishi kerak.

7.2. Tomonlar o'rtasida kelishuvga erishilmagan taqdirda, kelishmovchiliklar Toshkent shahar Toshkent tumanlararo iqtisodiy sudida qonunchilikda belgilangan tartibda hal qilinadi.

8. SHARTNOMANING AMAL QILISH MUDDATI. SHARTNOMANI BEKOR QILISH TARTIBI.

8.1. Ushbu Shartnoma ariza ro'yxatdan o'tkazilgan paytdan boshlab kuchga kiradi va noma'lum muddatga amal qiladi.

8.2. Shartnoma Tomonlarning kelishuvi bilan yoki bir tomonlama (suddan tashqari) tartibda, boshqa Tomonni Shartnomani bekor qilishning kutilayotgan sanasidan kamida 5 (besh) kalendar kun oldin yozma ravishda xabardor qilgan holda, o'zaro hisob-kitoblarni amalga oshirish sharti bilan bekor qilinishi mumkin.

8.3. Shartnomani bekor qilish uchun Mijoz Shartnomani bekor qilish to'g'risidagi arizani mustaqil shaklda rasmiylashtiradi, u imzolanishi va Mijozning muhri bilan tasdiqlanishi kerak.

8.4. Shartnomani bekor qilish to'g'risidagi ariza bilan bir qatorda, Mijoz Tizimda ishlash uchun Bank tomonidan ilgari unga berilgan kalit tashuvchilarni qabul qilish va topshirish dalolatnomasi (4-ilova) bo'yicha qaytaradi.

8.5. Bank kalit tashuvchilaridan, kalitdagi axborotlarni kalit tashuvchilarini qabul qilgan kuni yo'q qiladi.

8.6. Bank bilan Shartnomani bekor qilish to'g'risidagi ariza qabul qilingan kundan keyingi ish kunida Tizimda xizmat ko'rsatish to'xtatiladi.

8.7. Ushbu Shartnoma Tomonlarning yozma kelishuviga binoan o'zgartirilishi yoki qo'shimcha kiritilishi mumkin.

9. ILOVALAR

9.1. Ushbu Shartnomaga uning ajralmas qismi hisoblangan quyidagi ilovalar ilova qilinadi:

- 1-ilova - Ommaviy oferta shartnoma shartlarini qabul qilish va "Korporativ Internet-Banking" xizmatiga ulanish to'g'risidagi ariza;
- 2-ilova - Valyuta operatsiyalariga ulanish uchun ariza;
- 3-ilova - Mijozga kalit tashuvchilarini qabul qilish va topshirish dalolatnomasi;
- 4-ilova - Kalit tashuvchilarini qabul qilish va topshirish dalolatnomasi (Bankka qaytish);

10. QO'SHIMCHA SHARTLAR


10.1. Ushbu Shartnoma bilan tartibga solinmagan masalalar O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi, O'zbekiston Respublikasida naqd pulsiz hisob-kitoblar qoidalari va boshqa normativ hujjatlar, shuningdek Bankning ichki hujjatlari bilan tartibga solinadi.

10.2. Ushbu Shartnoma o'zbek tilida bir xil yuridik kuchga ega bo'lgan ikki nusxada tuzilgan. Shartnomaning bir nusxasi Bankda, ikkinchisi Mijozda qoladi.

10.3. "Korporativ Internet-Banking" tizimi Bankning mulki hisoblanadi. "Korporativ Internet-Banking" tizimi bo'yicha Mijozga xizmat ko'rsatishga tegishli va unga bog'liq barcha axborotlar maxfiy hisoblanadi va Mijoz O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq maxfiy axborotlarni oshkor qilganligi uchun javobgar bo'ladi.

10.4. Mijozning boshqa shaxslar bilan hisob-kitoblari bo'yicha o'zaro da'volari ular tomonidan Bank ishtirokisiz ko'rib chiqiladi.

11. TOMONLARNING MANZILLARI, BANK REKVIZITLARI VA IMZOLARI:

«BANK»
«ASIA ALLIANCE BANK» ATB
Manzil: Toshkent sh., Yashniobod tumani, Maxtumquli ko'chasi 2 a
Telefon: 712316000, E-mail: info@aab.uz
STIR: 207018693; IFUT: 64190; KTUT: 22921172
Bank rekvizitlari: h/v: 29802000000001095001
MFO: 01095
Boshqaruv Raisi  U. A. Abduazimov



*«Korporativ Internet-Banking» tizimi bo'yicha elektron
to'lov hujjatlari orqali hisob-kitoblarni tashkil etish
to'g'risidagi Ommaviy oferta shartnomasiga
1-Ilova*

Chiqish № _____

Sana _____

AB/MBXO Boshlig'i _____

«ASIA ALLIANCE BANK» ATB

_____ rahbariyati

(Tashkilot nomi)

Ommaviy oferta shartnomasi shartlarini qabul qiladi va quyidagi tizimni ulashingizni:

«Korporativ Internet-banking»

va quyidagilar uchun raqamli imzo bilan elektron xavfsizlik kalitini ro'yxatdan o'tkazishingizni:

1. Direktor _____ (Lavozimi) _____ (F.I.O) _____ (foydalanish darajasi - ko'rish / kiritish / imzolash)

2. _____ _____ (Lavozimi) _____ (F.I.O) _____ (foydalanish darajasi - ko'rish / kiritish / imzolash)

«Alliance Mobile» Mobil banking

va quyidagilar uchun elektron raqamli imzoni ro'yxatdan o'tkazishingizni so'raydi:

_____ _____ (Lavozimi) _____ (F.I.O) _____ (foydalanish darajasi - ko'rish / kiritish / imzolash)

_____ _____ (Lavozimi) _____ (F.I.O) _____ (foydalanish darajasi - ko'rish / kiritish / imzolash)

Yuqoridagi xodimlarning pasportlarining ilova qilingan nusxalari haqiqiylikini tasdiqlaymiz.

Mobil telefonning operatsion tizimi:

Android iOS

Shuningdek, ushbu arizani imzolash orqali biz pul-hisob-kitob hujjatlarining (to'lov summasi va boshqa rekvizitlari) to'g'ri rasmiylashtirilganligi, ularning elektron va qog'oz turlarining muvofiqligi uchun mustaqil ravishda javobgar ekanligimizni tasdiqlaymiz

Rahbar:

 Direktor _____ (Lavozimi) _____ (F.I.O va imzo) _____ M.O' (mavjud bo'lsa)

 Bosh buxgalter _____ (Lavozimi) _____ (F.I.O va imzo)

*“Korporativ Internet-Banking” tizimi bo'yicha elektron
to'lov hujjatlari orqali hisob-kitoblarni tashkil etish
to'g'risidagi Ommaviy oferta shartnomasiga
2-Ilova*

Chiqish № _____
Sana _____

AB/MBXO Boshlig'i

«ASIA ALLIANCE BANK» ATB

_____ rahbariyati
(Tashkilot nomi)

Sizdan "Korporativ Internet-banking" tizimida valyuta operatsiyalarini amalga oshirish uchun ruxsat berishingizni so'raydi. Shuningdek, ushbu arizani imzolash orqali biz chet el valyutasida amalga oshiriladigan operatsiyalarning to'g'riligi va qonuniyligi uchun mustaqil ravishda javobgar ekanligimizni tasdiqlaymiz.

_____**Direktor**

(Lavozimi) (F.I.O va imzo) M.O' (mavjud bo'lsa)

_____**Bosh buxgalter**

(Lavozimi) (F.I.O va imzo)

*“Korporativ Internet-Banking” tizimi bo'yicha elektron
to'lov hujjatlari orqali hisob-kitoblarni tashkil etish
to'g'risidagi Ommaviy oferta shartnomasiga*
3-Ilova

kalit tashuvchilarni
**QABUL QILISH-TOPSHIRISH
DALOLATNOMASI**

Toshkent sh.

20__ yil _____

Biz, quyida imzo chekuvchilar _____ va _____ tashkiloti vakili 20__ yil _____dagi _____-sonli "Korporativ Internet-Banking" tizimi bo'yicha elektron to'lov hujjatlari orqali hisob-kitoblarni tashkil etish to'g'risidagi Shartnoma asosida, quyidagi kalit tashuvchilar Bankka vaqtincha foydalanishga topshirilganligi to'g'risida mazkur dalolatnomani tuzdik:

№	Uskunaning nomi	Soni (dona)	Izoh
1	I-Key kalit		
	Jami		

«Korporativ Internet-Banking» Tizimi 20__ yil _____da faollashtirildi.

Topshirdi:

Qabul qildi:

*“Korporativ Internet-Banking” tizimi bo'yicha elektron
to'lov hujjatlari orqali hisob-kitoblarni tashkil etish
to'g'risidagi Ommaviy oferta shartnomasiga
4-Ilova*

kalit tashuvchilarni
**QABUL QILISH-TOPSHIRISH
DALOLATNOMASI**

Toshkent sh.

20__ yil _____

Biz, quyida imzo chekuvchilar _____ va
_____ tashkiloti vakili 20__ yil _____ dagi
_____-sonli "Korporativ Internet-Banking" tizimi bo'yicha elektron to'lov hujjatlari orqali hisob-
kitoblarni tashkil etish to'g'risidagi Shartnoma asosida, quyidagi kalit tashuvchilar Bankka
qaytarilganligi to'g'risida mazkur dalolatnomani tuzdik:

№	Uskunaning nomi	Soni (dona)	Izoh
1	I-Key kalit		
	Jami		

«Korporativ Internet-Banking» Tizimi 20__ yil _____ da faollashtirilishi
ochirildi.

Topshirdi:

Qabul qildi:

*«ASIA ALLIANCE BANK» ATBning «IAABC»
Integratsiyalashgan avtomatlashtirilgan bank tizimi tarkibidagi
“Korporativ Internet-banking” tizimida ishlash Tartibiga*

2-Ilova

Foydalanuvchilarni ro'yxatga olish va xavfsizlik kalitlari jurnali namunasi

№	Sana	Kalit kodi	Alliance Mobile (Ha/Yo'q)	Tashkilotning nomi, manzili va telefoni	Tashkilot mas'ul shaxsining F.I.O. va lavozimi	Imzo	Qaytarish yoki yo'qotish sanasi